



XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 24-oktabr

VI-72-70-11-167-K/24

Quvasoy shahar

Quvasoy shahar mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi mablag‘larini taqsimlanishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 126-moddasi (*Davlat budgeti, davlat maqsadli jamg‘armalari va O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining qo‘srimcha manbalaridan foydalanish*)ga muvofiq, Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarini belgilash, mahalliy budgeti xarajatlarini hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.

Mazkur Kodeksning 126-moddasiga asosan Quvasoy shahar budgetinining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi mablag‘lari bo‘yicha Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Quvasoy shahrining 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-63-91-11-167-K/23-sonli qaroriga asosan, Quvasoy shahar mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan mablag‘i bo‘yicha **826,0 mln.so‘m** miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kodeksga asosan, 2024-yil III chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi mablag‘lari bo‘yicha quyidagi xarajatlar uchun yo‘naltirilsin:

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagи “Budget ma’lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli qarori ijrosini ta’minalash (30 foiz) uchun aholi tomonidan eng ko‘p ma’qullangan tadbirdarga **207,0 mln.so‘m**;

2.2. Quvasoy shahar hokimligiga **356,2 mln.so‘m** hamda Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyatiga **54,8 mln so‘m** miqdorida qo‘srimcha ustama haq to‘lash uchun **jami 411,0 mln.so‘m**;

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 3-apreldagi 1454m va 2024-yil 30-iyundagi 16-1156m-sonli topshiriqlariga asosan

shahar hokimligi tashkiliy nazorat guruhi rahbariga qo'shimcha ustama haq to'lash uchun **26,2** mln.so'm;

2.4. Viloyat hokimligi snos jamg'armasiga **107,0** mln.so'm;

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hukumati qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar, ijtimoiy soha ob'ektlarini saqlash, shaharni obodonlashtirish va boshqa xarajatlar uchun **74,9** mln.so'm;

2.6. Yuqoridagi ajratilgan mablag'lardan iqtisod qilingan yoki foydalanilmagan mablag'lar mazkur qarorni 2-bandи 2.5-qismida nazarda tutilgan xarajatlarga yo'naltirish ko'zda tutilsin.

3. Quvasoy shahar mahalliy budgetining 2024-yil III chorak ijrosi bo'yicha hisobotlar yakuni bilan daromadlar rejasini ortiq bajarilgan qismiga aniqlik kiritilganda, yuqoridagi xarajatlar summasiga o'zgartirish kiritish nazarda tutilsin.

4. Shahar hokimining birinchi o'rribbosari (X.Xoldorov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Sh.Tojimamatov)lar Kodeksning tegishli moddalariga asosan budget mablag'lari taqsimlovchilarining budget mablag'lardan samarali foydalanishi ustidan qat'iy nazoratni o'rnatish hamda erishilgan natijalar bo'yicha hisobotlarini Kengashga kiritilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi va shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TO'RAKULOV
ZAFARJON
KODIROVICH